



### ● Nafaqa ta'minoti Milliy Dasturi haqida

▶ Nafaqa ta'minoti Milliy Dasturi - Hukumat tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy ta'minot tizimi bo'lib, sug'urtalanganlar yoki ularning qaramog'ida bo'lganlarning badallar yig'ish va nafaqa berish orqali doimiy mablag' bilan ta'minlanishni ko'zda tutib, nafaqaga chiqishga yoki ishga layoqatsizlik va o'lim kabi kutilmagan baxtsiz hodisalarga tayorgarlik ko'rish uchun mo'ljallanganidir.

### ● Nafaqa ta'minoti Milliy Dasturiga majburiy qo'shilish

▶ Koreyada istiqomat qiluvchi 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan chet elliklar, Koreya fuqarolari kabi Milliy Nafaqa ta'minoti tizimiga qo'shilishi majburiydir. Biroq, qaysiki davlatda milliy nafaqa dasturi koreya fuqarolari uchun qo'llanilmasa, o'sha davlatdan kelgan chet elliklar Milliy Nafaqa ta'minoti tizimiga qo'shilmaydilar.

▶ Yuqoridagi shartlarga qaramasdan, Koreya hamda chet el davlati o'rtasida tuzilgan Ijtimoiy himoya to'g'risidagi shartnoma tuzilgan bo'lsa, ushbu shartnoma shartlari qo'llaniladi.

### ● Nafaqa Badalining to'lanishi

▶ Ish joyi asosida ishlovchi xizmatchilar uchun xizmatchilar va ish beruvchilar birgalikda, xizmatchi topgan daromadiga asoslangan holda o'rta oylik maoshining 4.5% miqdorida xizmatchi uchun badal to'lashlari lozim.

▶ Yakka tartibda sug'urtalanganlar uchun, o'zlarining ma'lum qilgan o'rta oylik maoshlaridan 9% miqdorida badal to'lashlari lozim.

※ Nafaqa Badali miqdori borasida Koreya fuqarolari va chet elliklar o'rtasida tafovut mavjud emas. Badal navbatdagi oyning 10-kundan kechiktirilmagan to'lanishi lozim.

### ● Imtiyozlar

▶ Agar chet ellik sug'urtalangan shahslar keksalik yoshiga yetsa, ishga layoqatsiz bo'lib qolsa, vorislik nafaqasiga ega bo'lsa, ular Koreya fuqarolari kabi nafaqa oladilar.

▶ keksalik nafaqasi

- keksalik nafaqasi, 10 yildan oshiq sug'urtalangan va 60 yoshiga yetganlarga har oy to'lanib boriladi. Nafaqa yoshi, 2013-yildan boshlab 2033-yilgacha, 65 yoshga yetgunga qadar har besh yilda 1 yilga oshib boradi.

▶ Mehnatga layoqatsizlik nafaqasi

- Mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, kasallik davolangandan so'ng yoki sug'urta davrda mehnatga layoqatsizlikka uchragan shaxslarga, 1,2 va 3-toifadagi nogironlarga doimiy ravishda tolanadi, 4-toifadagi nogironlar esa bir marotaba butun mablag'ni olishlari mumkin

▶ Vorislik nafaqasi

- Agar sug'urtalangan shaxs yoki nafaqaxo'rlar vafot etsalar, vafot etgan shaxs qaramog'ida bo'lgan vorislarga oylik Vorislik nafaqalari beriladi



### ▶ Bir martalik to'lov orqali mablag'ni qaytarish

- Odatda, chet elliklarga bir martalik to'lov orqali mablag'lar qaytarilmaydi, shunga qaramasdan, quyidagi shartlarga asosan, ular Koreyani tark etganda, 60 yoshga yetganda, to'langan badallar hamda belgilangan ustama foizlari qo'shib, bir martalik to'lov orqali mablag'lar ularga, ular vafot etgan taqdirda ularning vorislariga beriladi.

1. Har ikki davlatda sug'urta muddatini birlashtirish orqali foyda huquqini ta'minlash maqsadida Koreya bilan ijtimoiy himoya shartnomasini tuzgan davlatlarning fuqarolari;
2. Koreya fuqarolariga bir martalik to'lov orqali mablag'ni qaytarishni joriy etgan davlatlarning fuqarolari
3. E-8 (malaka oshirish uchun ishlash), E-9 (mutaxassisliksiz ishlash) yoki H-2 (tashrif buyurib ishlash) viza turlariga ega bo'lgan chet elliklar

### 【 Bir marta mablag'lar qaytarilishi qo'llanadigan davlatlar 】

Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi kelishuv amal qiluvchi davlatlar (5)	bir martalik to'lov orqali mablag'ni qaytarishni, o'zaro tenglik tamoyiliga ko'ra joriy etgan davlatlar (29)	Milliy Nafaqa tizimiga ega bo'lmagan davlatlar (18)
Germaniya, AQSh, Kanada, Vengriya, Fransiya	Beliz, Granada, Nigeriya, Barbados, San-Vinsent va Grenadin, Zimbabve, Kamerun, Kongo, Tailand, Togo, Venesuela, Gana, Malayziya, Vanuatu, Bermudlar, Sudan, Shri-Lanka, Shveytsariya, Salvador, Iordaniya, Hindiston, Indoneziya, Qozog'iston, Keniya, Trinidad Tobago, Filippin, Gonkong, Turkiya, Kolumbiya	Janubiy Afrika, Nepal, <del>Rossia</del> , Maldivlar, Myanmar, Bangladesh, Vietnam, Saudiya Arabistoni, Singapur, Armeniya, <del>Ukraina</del> , Efiopiya, Eron (ijtimoiy himoya kelishuvi asosida), Misr, Tongo, Pokiston, Fiji, Kombodja

### ● Mablag'larning bir martalik qaytarilishi uchun ariza

▶ Kerakli bo'lgan hujjatlar

- Karyada murojaat etuvchilarga (Koreyadan ketishdan oldin): Ariza varaqasi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi (passport, ro'yhatga olish kartasi), bank kartasidan nusxa, avia chiptadan nusxa, va hokazo.
- Koreadan tashqarida murojaat etuvchilarga Ariza varaqasi (Notarial tasdiqlangan, va yashash davlatidagi Koreya elchixonasi yoki konsulligida legalizatsiya qilingan); Passport nusxasi; Bank kartasidan nusxa.

※ Agarda bir martalik mablag'lar qaytarilishi uchun Koreyadagi vakilingiz orqali murojaat etsangiz, ortiqcha xizmat to'lovlaridan voz kechish va xato yoki noto'g'ri arizalarni oldini olish uchun arizani faqatgina pochta orqali berishingiz zarur.

▶ Murojat uchun manzil : Milliy Nafaqa Xizmatining hududiy idorasi. ([www.nps.or.kr](http://www.nps.or.kr) ⇒ hududiy idoralar)